

QASHQADARYO VILOYATINING MA'MURIY-HUDUDIY BO'LINISHINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Po'latova Sh.B.- Qarshi davlat universiteti magistranti.
O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishining geografik xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyatning tuman va shaharlari shakllanish tarixi, aholi joylashuvi, hududiy tarkibi hamda ma'muriy birliklar o'rtasidagi tafovutlar o'rganilgan. Shuningdek, aholi punktlarining maydon va aholi ko'rsatkichlari asosida hududiy tashkil etilish samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalari viloyat ma'muriy-hududiy tizimini takomillashtirish va hududlarni muvozanatli rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, ma'muriy-hududiy bo'linish, tuman, shahar, shaharcha, qishloq aholi punktlari, aholi joylashuvi, hududiy tashkil etish.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АДМИНИСТРАТИВНО- ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО ДЕЛЕНИЯ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Пулатова Ш.Б. – магистрант Каршинского государственного
университета. Республика Узбекистан.

Аннотация: В статье проанализированы географические особенности административно-территориального деления Кашкадарьинской области. Рассмотрены история формирования районов и городов области, территориальная структура, размещение населения и различия между административными единицами. На основе показателей площади и численности населения проведена оценка эффективности территориальной организации населённых пунктов. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования административно-территориальной системы и обеспечения сбалансированного регионального развития.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, административно-территориальное деление, район, город, посёлок, сельские населённые пункты, размещение населения, территориальная организация.

GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE ADMINISTRATIVE- TERRITORIAL DIVISION OF KASHKADARYA REGION

Pulatova Sh.B. – Master's Student of Karshi State University,
Republic of Uzbekistan.

Abstract: This article analyzes the geographical features of the administrative-territorial division of Kashkadarya Region. The historical development of districts and cities, territorial structure, population distribution, and differences among administrative units are examined. Based on area and population indicators, the efficiency of territorial organization of settlements is

assessed. The findings provide a scientific basis for improving the administrative-territorial system and ensuring balanced regional development within the region.

Keywords: Kashkadarya Region, administrative-territorial division, district, city, urban settlement, rural settlement, population distribution, territorial organization.

Kirish. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ma'muriy-hududiy bo'linish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u davlat boshqaruvining hududiy asosini tashkil etadi. Ma'muriy birliklarning hududiy joylashuvi, aholi soni, aholi punktlari tarkibi va tabiiy-geografik sharoitlari hududlarning iqtisodiy rivojlanishi hamda aholiga xizmat ko'rsatish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning yirik hududlaridan biri bo'lib, tabiiy resurslarga boyligi, aholisining ko'pligi va iqtisodiy salohiyati bilan ajralib turadi. Viloyatda keyingi yillarda aholi sonining o'sishi, yangi aholi punktlarining shakllanishi va ayrim hududlarning qayta tashkil etilishi ma'muriy-hududiy tizimni geografik jihatdan o'rganish zaruratini kuchaytirmoqda. Xususan, Ko'kdala tumanining tashkil etilishi hududiy boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim islohotlardan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi, tuman va shaharlarining shakllanish tarixi, aholi punktlarining hududiy joylashuvi hamda ularning geografik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyati – O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi eng birinchi tashkil etilgan viloyatlardan biri bo'lib, u 1924-yil 1-noyabrda tashkil etilgan. Viloyat Respublikaning janubi-g'arbida Qashqadaryo havzasida, Pomir-Oloy tog' tizmasining g'arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari, Hisor va Zarafshon tizma tog'lari orasida joylashgan. Shimoli-g'arbdan Buxoro va janubi-sharqdan Surxondaryo viloyatlari, janubi-g'arb va g'arbdan Turkmaniston Respublikasi, sharqdan Tojikiston Respublikasi hamda shimoli-sharqdan Samarqand viloyati bilan chegaradosh. 2026- yilning 1-yanvar holatiga viloyat maydoni - 28,57 ming km²ni, doimiy aholisi soni 3 717,0 ming kishini tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga ko'paygan (respublika viloyatlari orasida 3-o'rinda). Viloyat ma'ruriy hududiy bo'linishiga ko'ra 14 ta qishloq tumani – Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Ko'kdala, Mirishkor, Muborak, Nishon, Qamashi, Qarshi, Yakkabog', G'uzor, Shahrisabz, Chiroqchi, 12 ta shahar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tallimarjon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Yangi-Nishon, Qamashi, Qarshi, G'uzor), 118 ta shaharcha va 1032 ta qishloq aholi manzilgohlari mavjud.

Qashqadaryo viloyati tumanlarning vujudga kelish tarixi, sabablari, maydoni va har bir hududga tarqalgan aholi punktlarining son va maydon jihatidan qanchalik mos yoki mos emasligi haqida o'rganib shu holat yuzasidan taklif va mulohazalar berish maqsadga muvofiq. Quyida Qashqadaryo viloyatiga bo'ysunuvchi shaharlar va qishloq tumanlarining tarixi, aholisi va ma'muriy xududiy bo'linishi bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Qarshi (Naxshab, Navtaka, Nasaf, Behbudiy – 1926 – 1937-yillarda) O‘zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi shahar (1926-yildan), viloyat markazi (1943-yildan). Qashqadaryo vohasining markazida, Qashqadaryo bo‘yida, xalqaro temir yo‘l va avtomobil yo‘llari kesishgan joyda joylashgan. Maydoni 8 ming 308,9 gektar (2025-yil). Aholisi 305 ming kishi (2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra). Qarshi O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri. U turli davrlarda Bolo, Nashebolo, Naxshab, Nasaf, nomlari bilan yuritilib, XIV asrdan boshlab Qarshi deb atala boshlagan. Qarshi shahrining o‘zbek tarixida o‘ziga xos o‘rni bor. Birinchidan, Qarshi Movarounnahrda birinchi yirik turkiy tilli shahar. U payti Xorazmda (Urganch), Farg‘onada (Andijon), Shosh vohasida (Toshkent), Sirdaryo bo‘ylarida bir qancha yirik shaharlarda turkiy til hukmron edi, lekin Movarounnahrda bunday shahar yo‘q edi. Qarshining qurilishi bilan bu yerda turli-tuman aholi joylashdi, ammo turkiy shaharda hukmron tilga aylandi. U payti mo‘g‘ullarning o‘zi ham allaqachon turkiy tilda gapirardi. Xususan, Kebakxonning ona tili turkiy til bo‘lganini arab sayyohi Ibn Battuta qayd etgan. Chig‘atoy ulusi, undan keyin Temuriylar davrida turkiy til rasmiy yozishmalar tili bo‘lib xizmat qildi. Hozir Qarshi shahrida paxta tozalash, yog‘-ekstraksiya, sut, motor ta‘mirlash, ta‘mirlashmexanika, uysozlik, plastmassa buyumlari zavodlari, go‘sht va un kombinatlari, tikuvchilik fabrikasi, qurilish materiallari, temir yo‘l transporti, to‘qimachilik korxonalarini bor. Shaharda 6 ta bozor, 17 ta bank filiali aholiga xizmat ko‘rsatmoqda. Qarshi davlat universiteti, Qarshi davlat texnika universiteti, 6 ta xususiy universitetlar, tibbiyot, pedagogika va boshqa jami 13 kasb-hunar kolleji, 3 akademik litsey, 9 litsey va litsey-internat, 2 gimnaziya, 46 umumiy ta‘lim, shuningdek, bolalar musiqa maktablari, 4 teatr (shu jumladan, viloyat musiqali drama teatri, viloyat qo‘g‘irchoq teatri va boshqalar), viloyat o‘lkashunoslik muzeyi, filarmoniya, 13 kutubxona, 3 madaniyat va istirohat bog‘i faoliyat ko‘rsatadi. 22 shifoxona, ambulatoriya-poliklinika va boshqalar tibbiy muassasalar bor. Qarshidan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Termiz kabi shaharlarga avtobus, poyezd qatnovlari, Qarshi aeroportidan Qarshi – Toshkent, Qarshi – Moskva, Qarshi – Sankt Peterburg yo‘nalishlarida samolyotlar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Qarshida Ko‘k Gumbaz masjidi (XVI asr), qadimiy hammom (XVI asr), Qashqadaryo ustidagi qadimiy ko‘prik (XVI asr), Sharafboy madrasasi (XVIII asr boshlarida), Charmgar masjidi (XIX asr o‘rtalari), Bekmir madrasasi (1905), Abdulazizxo‘ja madrasasi (XIX asr), Qilichbek madrasasi (XIX asr) va boshqa me‘moriy obidalar saqlanib qolgan.

Shahrisabz – O‘zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi shahar, u 2017 – yildan to‘g‘ridan to‘g‘ri viloyatga bo‘ysunadi. Amir Temur ordeni sohibi. 1926 – 2017 – yillarda Shahrisabz tumani ma‘muriy markazi vazifasini bajargan. Shahar Kitob – Shahrisabz vohasida, katta O‘zbekiston trakti yoqasida joylashgan. Shahrisabzning janubidan Tanxozdaryo, shimolidan Oqsuv daryosi oqib o‘tadi. Dengiz sathidan o‘rtacha balandligi 658 m. Aholisi 150,1 ming kishini tashkil etadi (2025). Shahrisabz O‘zbekistondagi qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, shaharga miloddan avvalgi ming yillikning o‘rtalarida asos solingan. Shahrisabz milodning boshlarida va ilk o‘rta asrlarda

turli nomlar bilan (masalan Kesh) atalgan. XIII asrdan Shahrisabz nomi ham urf boʻlgan.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati ma'muriy hududiy bo'linishi (01.01.2026)

| | Tuman | Maydon (ming km) | Shahar va shaharcha | Qishloqlar | O'rtacha zichlik shaharda | O'rtacha zichlik qishloqda |
|----|------------|---------------------|------------------------|------------|---------------------------------|-------------------------------|
| 1 | Dehqonobod | 4,0 | 3 | 106 | 666 | 37,7 |
| 2 | Kasbi | 0,65 | 9 | 49 | 72 | 13,2 |
| 3 | Kitob | 1,75 | 14 | 144 | 125 | 12,1 |
| 4 | Koson | 1,88 | 15 | 66 | 125 | 28,4 |
| 5 | Qamashi | 2,66 | 6 | 115 | 433 | 23,1 |
| 6 | Qarshi | 0,9 | 16 | 73 | 56 | 12 |
| 7 | Mirishkor | 3,1 | 3 | 22 | 1033 | 140 |
| 8 | Muborak | 3,7 | 6 | 15 | 616 | 246,6 |
| 9 | Nishon | 2,1 | 11 | 30 | 190,9 | 70 |
| 10 | G'uzor | 2,62 | 6 | 80 | 436,6 | 32,75 |
| 11 | Chiroqchi | 2,8 | 6 | 95 | 466 | 29 |
| 12 | Shaxrisabz | 1,70 | 13 | 101 | 130 | 16,8 |
| 13 | Yakkabog' | 1,3 | 15 | 114 | 86,6 | 11,4 |
| 14 | Ko'kdala | 1,71 | 3 | 32 | 570 | 53 |

1. Dehqonobod tumani – 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda G'uzor tumani bilan birlashtirilgan. 1971-yil 31-avgustda qayta tuzilgan). Dehqonobod tumani viloyatning janubi-sharqida joylashgan. Shimoli-g'arbda G'uzor tumani, shimoli-sharqda Qamashi tumani, janubi-sharqda Surxondaryo viloyatining Boysun va Sariosiyo tumanlari, g'arbda Turkmanistonning Lebap viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 4,0 ming km². Aholisi 162,7 ming kishi (2025). Dehqonobod tumanida 3 ta shaharcha (Qorashina, Dehqonobod, Beshbuloq) shaharlar o'rtacha zichligi eng yuqori hudud (1-jadval), 14 ta qishloq fuqarolari yig'ini (Beshqo'ton, Bibiqorasoch, Bozortepa, Boshchorboq, Duob, Obiravon, Oqirtma, Oqmachit Oqrabot, Oqtosh, Qizilcha, Qirqquloq, Qorashina, Qo'rg'ontosh) bor. Qorashina tumanning markazi bo'lib, shimoliy-sharqiy qismiga yaqinroq, tog' oldi hududida joylashgan. Tuman tog'-kon sanoati, chorvachilik, gips va mineral resurslar bilan yaxshi ta'minlangan.

2. Kasbi tumani – O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 1970-yil 16-oktabrda tashkil etilgan. Maydon 0,65 ming km². Aholisi 204,0 ming kishi. (2-jadvalga) Kasbi tumanida 12 qishloq fuqarolari yig'ini (Denov, Komilon, Maymanoq, Masit, Mug'lon, Qamashi, Qatag'on, Talishbe, Shakarjo'y, Toshqo'rg'on, Yangihayot, Yuksalish, Xo'jaqarliq, Cho'lquvar) bor. Markazi – Mug'lon shaharchasi. Tuman markazi Mug'lon aholi punkti tumanning sharqiy tomoniga yaqinroq hududda joylashgan. Tuman paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilikka ixtisoslashgan.

3. Kitob tumani – O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman bo'lib viloyatning shimoli-sharqida joylashgan. 1926-yil sentabrda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Shahrisabz tumani bilan birlashtirilgan. 1968-yil 25-

dekabrda qayta tuzildi va hozir viloyatning Chiroqchi, Shahrisabz tumanlari, Samarqand viloyati va Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni – 1,75 ming km². Aholisi – 287,7 ming kishi (2025-yil holatiga ko‘ra). Kitob tumanida 1 shahar (Kitob), 13 ta shaharcha – Alaqo‘yliq, Bektemir, Beshterak, Rus qishloq, Baxtdarvozasi, Obikanda, Panji, Sariosiyo, Sevaz, Xoji, Varganza, Yakkatut, Yangiobod), 60 dan ortiq (rasmiy ma‘lumotlarda) mahalla va 26 ta mahalla punktlari bor (2025-yil holatiga ko‘ra). Kitob Qashqadaryo tumanlari ichida eng ko‘p qishloq aholi punktiga ega tuman hisoblanadi. Markazi – Kitob shahri. Tuman hududidan Katta O‘zbekiston trakti o‘tgan. Taxtaqoracha dovoni (balandligi 1788 m) esa respublika janubini shimoliy viloyatlar bilan bog‘laydi. Tuman markazi Kitob shahri tog‘ etaklarida, tuman sharqiga yaqin joylashgan. Kitob tumani bog‘dorchilik, uzumchilik, turizm va dehqonchilikka ixtisoslashgan.

4. Koson tumani – O‘zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatida joylashgan tuman. Koson Respublikadagi dastlab vujudga kelgan tumanlardan biri bo‘lib, u 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Samarqand viloyatining Nurobod tumani, Qashqadaryo viloyatining Ko‘kdala, Muborak, Qarshi, Kasbi tumanlari va Qarshi shahri bilan chegaradosh. Maydoni 1,88 ming km². Aholisi (tahminan) 319 ming kishi atrofida (2025-yil holatiga ko‘ra) bo‘lib asosan o‘zbeklar (boshqa millatlar ham yashaydi) hisoblanadi. Shahar aholisi eng ko‘p tuman 156258 kishini tashkil qiladi (2-jadval) Koson tumanida 1 ta shahar – Koson, 14-ta shaharchalar, jumladan Po‘lati, Surhon, Guvalak va boshqalar bor. Mahallalari Guvalak, Bo‘lmas, Gulbog‘, Quyibog‘, Jizzalik, Mug‘jagul, Saripul, Nartichuqur, Nartibaland, Lolazor, Mesit, Chorbog‘, Oqtepa, Yangiobod, Ravot, Regzor, Mas‘hal, Yuqori Obron, O‘rta Obron, Quyi Obron, Boyg‘undi, Mudin, Do‘stlik, Koson, Obidida, Alachabob, Po‘loti, Kasbi, Maymanoq, Qarliq, Gala mahallalari bor Markazi – Koson shahri. Tuman markazi Koson shahri tumanning janubiy-markaziy qismida joylashgan. Tumanda paxtachilik, hunarmandchilik savdo yaxshi rivojlangan.

5. Ko‘kdala tumani – Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 2022-yil 17-martda Chiroqchi tumani hududini ikkiga bo‘lish orqali tashkil etilgan. 2022-yil 2-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining yalpi majlisida Ko‘kdala tumanini tashkil etish to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi. Majlisda yangi tashkil etiladigan Ko‘kdala tumaniga Chiroqchi tumanidan tahminan 177 ming aholi yashaydigan 171 ming gektar yer maydoni ajratilishi haqida kelishib olindi. 2022-yilning 19-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati yig‘ilishida Ko‘kdala tumanini tashkil etish to‘g‘risidagi tegishli qaror qabul qilindi. Ko‘kdala tumanini tashkil etishda O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev so‘zlagan nutqdan parcha: Ko‘kdala tumanini tashkil etishdan asosiy maqsad bu yerda yashaydigan 182 ming nafar aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish, hududni iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishdir. Yettitom shaharchasi uning ma‘muriy markazi etib belgilangan. Tuman asosan tarvuz va qovun yetishtirish bo‘yicha nafaqat viloyatda, balki Markaziy Osiyoda ham yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

6. Mirishkor tumani – O‘zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 2003-yil 6-yanvarida Usmon Yusupov va Bahoriston tumanlarining birlashtirilishi natijasida tashkil etilgan. Tumanning ma‘muriy markazi Yangi Mirishkor tumanning markaziy-g‘arbiy tomonida joylashgan. Pomuq – Mirishkor tumaniga qarashli shaharcha. 2009-yilda shaharcha maqomi berilgan. Mirishkor Gaz sanoati, cho‘l chorvachiligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan yaxshi ta‘minlangan. Mirishkor tumanida bir qancha berk botiqlar: Qorabuloq, Dengizko‘l, Xo‘jam Sayot, Qirqchashma va boshqa bor. Ularda shifobaxsh balchiqlar, tuz qatlamlari hosil bo‘lgan. Tuman hududida Alang, Pomuq, Kultog‘, Ko‘kdumaloq, O‘rtabuloq, Zevarda, Dengizko‘l kabi neft, gaz va kondensatga boy konlar mavjud. Tuman yerlari Amudaryodan suv oladigan Mirishkor kanalidan sug‘oriladi.

7. Muborak tumani – O‘zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 1978-yil 13-sentabrda tashkil etilgan. Muborak shahri tumanning markaziy qismiga yaqin hududda joylashgan. Tuman hududidan neft va gaz konlari topilgan. Janubiy Muborak, Shimoliy Muborak va boshqa konlardan neft va gaz chiqarilmoqda. Muborak – Zirabuloq, Muborak – Kogon, Muborak – Navoiy gaz uzatish quvurlari ishlab turibdi. Muborak tumani hududida tabiiy gazni qayta ishlash zavodi bor. Tumanda „Muborakneftgaz“ korxonasi va unga qarashli Zevardi, Ko‘kdumaloq, Alan, O‘rtabuloq, Kultog‘, Pomuq, Shimoliy O‘rtabuloq, Kurik kabi gaz konlari ishlab turibdi. Tumanda 1 qo‘shma korxonasi, 850 dan ziyod kichik va xususiy korxonasi, 16 aksiyadorlik jamiyati mavjud. Qishloq xo‘jaligida paxtachilik, g‘allachilik va chorvachilik yetakchi o‘rinda. Yana bir jihatiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, maydoni yetarli darajada katta bo‘lishiga qaramay shaharlar soni 6ta qishloqlar soni esa atigi 15 tani tashkil qilyapti o‘rtacha zichligi shaharda 616km.kvni qishloqlarda esa 246,6km.kvni tashkil qilmoqda.

2-jadval

Qashqadaryo viloyati ma‘muriy birliklari maydoni va aholisi

| | Tuman | Maydon (ming km) | Shahar aholisi | Qishloq aholisi | O‘rtacha zichlik shaharda | O‘rtacha zichlik qishloqda |
|----|------------|---------------------|-------------------|--------------------|---------------------------------|----------------------------------|
| 1 | Dehqonobod | 4,0 | 28810 | 124325 | 9603 | 1172 |
| 2 | Kasbi | 0,65 | 78454 | 125578 | 8717 | 2562 |
| 3 | Kitob | 1,75 | 101074 | 125578 | 7219 | 1181 |
| 4 | Koson | 1,88 | 156258 | 170157 | 10417 | 2140 |
| 5 | Qamashi | 2,66 | 66404 | 141242 | 11064 | 1862 |
| 6 | Qarshi | 0,9 | 94146 | 214232 | 5884 | 2263 |
| 7 | Mirishkor | 3,1 | 46652 | 165221 | 15550 | 3520 |
| 8 | Muborak | 3,7 | 71735 | 77457 | 11955 | 1239 |
| 9 | Nishon | 2,1 | 96434 | 18596 | 8766 | 2093 |
| 10 | G‘uzor | 2,62 | 49682 | 62795 | 8280 | 2033 |
| 11 | Chiroqchi | 2,8 | 101415 | 330578 | 11268 | 2602 |
| 12 | Shaxrisabz | 1,70 | 54824 | 172739 | 4217 | 1710 |
| 13 | Yakkabog‘ | 1,3 | 88313 | 182728 | 5887 | 1602 |
| 14 | Ko‘kdala | 1,71 | | | | |

8. Nishon tumani – Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 1975-yil 6-martda tashkil etilgan. Tuman markazi Yangi Nishon tumanning gʻarbiy tomoniga yaqinroq joylashgan. Qashqadaryo tumanlari ichida qishloq aholisi eng kam hudud qariyb 18596 aholini tashkil qiladi (2-jadvaldan) Nishon tumani xoʻjaliklari paxtachilik, gʻallachilik, sabzavotchilik, polizchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan. Tumanda 377 kichik va xususiy korxonalar, 52 aksiyadorlik jamiyati, Tallimarjon GRES qurilish boshqarmasi, Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasi shoʻba korxonasi mavjud. Nishon tumanida 3 shirkat, 1967 fermer xoʻjaligi faoliyat koʻrsatmoqda. 47196 ga yer maydoni sugʻoriladi, shu jumladan, 24553 ga paxta, 18640 ga gʻalla, 596,6 ga sabzavot va poliz, 1637 ga yem-xashak ekinlari bilan band.

9. Qamashi tumani – Oʻzbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman, 1937-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Qarshi tumaniga qoʻshilgan. 1964-yil 31-dekabrda yana qaytadan tashkil etilgan. Tuman markazi Qamashi shaharchasi tumanning deyarli markaziy qismida joylashgan. Tumanda 3,5 mingga yaqin korxonalar, jumladan sanoat, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat koʻrsatish va hokazo faoliyat koʻrsatmoqda. Paxta tozalash, gʻisht zavodlari, MTP, qurilish tashkilotlari, avtokorxonalar, kichik, oʻrta biznes va yirik korxonalar, mikrofirmalar bor. 3 ta qoʻshma korxonalar ishlab turibdi. Qishloq xoʻjaligi, asosan, paxtachilik va gʻallachilikka ixtisoslashgan. Togʻli hududlarda bahorikor gʻallachilik (bugʻdoy, arpa) rivojlangan. Pillachilik bilan ham shugʻullaniladi. Chorvachilikning muhim sohasi qoramolchilik (asosan, sugʻoriladigan zonada), qoʻychilik (togʻ zonasida) hisoblanadi. Tumanda dehqon, fermer xoʻjaliklari va boshqa qishloq xoʻjalik korxonalarlari bor. Ekin maydonlarining 9,8 ming ga yeriga paxta, 25,6 ming ga yeriga gʻalla, shuningdek, sabzavot va kartoshka, yem-xashak ekinlari ekiladi. Tuman jamoa va shaxsiy xoʻjaliklarida 61,4 mingga yaqin qoramol, 110,3 mingdan ziyod qoʻy va echki, 130,2 mingdan ziyod parranda, 3,4 mingga yaqin yilqi boqiladi.

10. Qarshi tumani – Oʻzbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman, 1931-yil 1-oktabrda tashkil etilgan. Tuman markazi Beshkent tumanning shimoliy-sharqiy tomoniga yaqinroq hududda joylashgan. Beshkent – 1977-yilda shahar maqomini olgan. 1964-yildan eʼtiboran Qarshi tumani markazi hisoblangan. Tuman Qarshi shahri atrofida joylashganligi uchun paxtachilik bilan birga gʻallachilik, sabzavot va polizchilik, bogʻdorchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan. Pillachilik bilan ham shugʻullaniladi.

11. Yakkabogʻ tumani – Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Yakkabogʻ shahri - tuman markazi hisoblanadi. Yakkabogʻ 1978-yildan shahar maqomini olgan. Yakkabogʻ shahri tumanning sharqiy-togʻ oldi qismida joylashgan. Eski Yakkabogʻ – Yakkabogʻ tumanidagi shaharcha (1989-yildan) hisoblanadi. Yakkabogʻ tumanida jami 2300 dan ziyod korxonalar, tashkilot va savdo shoxobchasi ishlab turibdi. Paxta tozalash, un tortish, „Sharobkonserva“ zavodlari, Yakkabogʻ toʻqimachilik kombinati, MTP, qishloq xoʻjalik mashinalarini taʼmirlash korxonalarlari, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini

qayta ishlaydigan korxonalar, mikrofirmalar, madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyat ko'rsatadi.

12. G'uzor tumani – O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Tuman markazi G'uzor shaharchasi tuman hududining markaziy qismiga nisbatan yaqin joyda joylashgan. Tumanda 56 sanoat, qurilish korxonasi bor, shulardan yiriklari: paxta tozalash, ta'mirlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, ta'mirlash-qurilish, „Sho'rtangaz“ unitar-sho'ba, "Sho'rtan gaz-kimyó majmuasi" sanoat korxonalaridir. Savdo, madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, avtovokzal, avtokemping, dehqon bozori bor. G'uzor tumanida 1500 ga yaqin fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Tuman qishloq xo'jaligi, asosan, paxtachilik, g'allachilikka ixtisoslashgan, qo'ychilik (jumladan, qorako'l qo'ylari), qoramolchilik, parrandachilik ham rivojlangan. Yiliga qariyb 13 ming qorako'l teri tayyorlanadi.

13. Shahrisabz tumani – Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqiy qismida, Hisor tog'larining etaklarida joylashgan tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Shu jumladan yana bir diqqatga sazovor shaharcha bu Miroqi shaharchasi. Miroqi- Shahrisabz tumanida joylashgan qishloq. 1986-yil 27-mayda shaharcha maqomini olgan. Tuman xo'jaligi, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Shahrisabz tumanida 9 qo'shma korxonasi, kichik korxonalar, 1300 ga yaqin xususiy korxonasi, 14-shirkat korxonasi, 19 aksiyadorlik jamiyati mavjud. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i paxtachilik. Shuningdek, g'allachilik, chorvachilik, pillachilik ham rivojlangan.

14. Chiroqchi – O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda Qashqadaryo viloyati tarkibiga kiritilgan. Qisqa muddat, 1962-yildan to 1964-yilgacha Yakkabog' tumani bilan birlashtiriladi. 1964-yilda esa yana alohida tuman sifatida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo viloyatidagi tuman. Hududi 2.8 ming km². Aholisi 445.5 ming kishi. Shimolda Samarqand viloyatining Nurobod va Pstdarg'om tumanlari, g'arbda Koson tumani, sharqda Shahrisabz va Yakkabog' tumanlari, janubda esa Qamashi, G'uzor va Qarshi tumanlari bilan chegaradosh. Tuman hududida Chimqo'rg'on va Qalqama suv omborlari mavjud. Markazi – Chiroqchi shahri. Chiroqchi tumani asosan qishloq xo'jaligiga asoslangan. Qishloq xo'jaligi paxtachilik, g'allachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan

Xulosa. Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyati ma'muriy-hududiy tizimi o'ziga xos geografik xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Viloyat tarkibidagi tumanlar maydoni, aholi soni va aholi punktlari tarkibi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ayrim tumanlarda aholi zichligi yuqori bo'lsa, boshqalarida hudud katta bo'lishiga qaramasdan aholi nisbatan siyrak joylashgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qarshi, Koson, Chiroqchi va Kitob tumanlari aholi va aholi punktlari soni bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Mirishkor, Muborak va Dehqonobod kabi tumanlarda esa hudud maydoni katta bo'lishiga qaramasdan aholi punktlari nisbatan kam joylashgan. Bu holat tabiiy sharoit, resurslar va xo'jalik ixtisoslashuvi bilan izohlanadi.

Kelgusida ma'muriy-hududiy birliklarni takomillashtirishda aholi joylashuvi, transport tarmoqlari, iqtisodiy faollik va ijtimoiy infratuzilma omillarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bu esa hududlarning barqaror va mutanosib rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov P. R., Qo'ldosheva G. M. Ecological-geographical problems in the residential areas of kashkadarya region //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 617-619.
2. Toshtemirovna B. M. Geographical aspects of the demographic situation in Kashkadarya region //academia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 188-190.
3. Qurbonov P. R., Botirov B. Z. The impact of global climate change on urban development //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 613-616.
4. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. Экономико-географические проблемы градостроительства верхне-Кашкадарьинской области //Educational research in universal sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 707-713.
5. Qurbonov P. O 'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy bosqichlari //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – Т. 3. – С. 165-165.
6. Murodova D. S. Economicgeographical characteristics of the rural population of kashkadarya region //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 460-467.